

# МУГАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҮ



ISSN 2181-7138

№ 1 / 1 2021 жыл

## Илимий-методикалық журнал

Редактор:  
*A. Тилегенов*

Редколлегия ағзалары:  
Максет АЙЫМБЕТОВ  
Нагмет АЙЫМБЕТОВ  
Кенесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ  
Дилшодхұжа АЙТБАЕВ  
Өсөрбай ЭЛЕУОВ  
Асқар ДЖУМАШЕВ  
Кенесбай Даулетяров  
Гүлнара ЖУМАШЕВА  
Батырбек КАЙПБЕРГЕНОВ  
Амангелди КАМАЛОВ  
Сарсен КАЗАХБАЕВ  
Гулмира КАРЛЫБАЕВА  
Сабит НУРЖАНОВ  
Уролбой МИРСАНОВ  
Арзы ПАЗЫЛОВ  
Зухра СЕИТОВА  
Айдын СУЛТАНОВА  
Тажибай УТЕБАЕВ  
Ризамат ШОДИЕВ  
Ойбахор ШАМИЕВА  
Бекзод ХОДЖАЕВ  
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ  
Гулрухсор ЭРГАШЕВА

Шөлкемлестириүшилер:  
Қарақалпақстан Республикасы  
Халық билимлендіриү  
Министрлігі, ӨЗПИИ  
Қарақалпақстан филиалы

Өзбекстан Республикасы  
Министрлер Кабинети  
жанындағы Жоқарғы  
Аттестация Комиссиясы  
Президиумының 25.10.2007  
жыл (№138) қаравы менен  
дизимге алынды

Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм  
хабар агентлиги тәрепинен  
2007-жылы 14-февральдан дизимге  
алынды №01-044-саналы гүйалық  
берилген.  
Мәнзил: Нөкис қаласы,  
Ерназар Алакөз көшеси №54  
Тел.: 224-23-00  
e-mail: uznipnkf@mail.uz,  
mugallim-pednauk@mail.uz  
[www.mugallim-uziksiz-bilim.uz](http://www.mugallim-uziksiz-bilim.uz)

Журналга келген мақалаларға жеүап қайтарылмайды, журналда жетрояланған мақалалардан  
алынған үзиндилер «Мугаллим ҳәм үзлиksiz bilimlenediриү» журналынан алыны, деп корсетилиғи  
шарт. Журнала 5-бет колеміндеғи материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шириф-  
тіндеге электрон версиясы менен бирге қабыл етіледи. Мақалада көлтирилген мәглүмәттердеге автор  
жекуапкер.

# МАЗМУНЫ

## БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӨРБИЯ

Mardonov Sh.Q., Abdullayev A.A. Maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab hamkorligi .....	4
Mahmudova D.B. Maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan o'yinlar va ularni tashkil etish metodikasi .....	8
Shanasirova Z.Yu. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagি bolalarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash hamda nutqini rivojlantirish .....	13
Abdullayeva M.Dj. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning estetik rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlар .....	17
Narimbayeva L.K. Maktabgacha yoshdagи bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanishning ahamiyati .....	20
Nosirova R.X. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa ta'limi va tarbiyasining mohiyati .....	22
Kolmatova S.K. Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda Sharq mutafakkirlari fikrlaridan foydalanish ahamiyati .....	26
Maripova N.H. Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya .....	28
Sanakulova A.R. Maktabgacha ta'lim muassasalarida rahbarlarida huquqiy tarbiyanı rivojlantirish .....	31
Teshabayeva Z.S. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya maqsadi .....	34
Nasirova Z.X. O'yin turlari: ijodiy o'yinlar, qoidalı o'yinlar, milliy o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari .....	38
Shanasirova Z.Yu. Maktabgacha yoshdagи bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning ahamiyati .....	43
Jo'raboyev A.B. Maktabgacha ta'lim tizimida ma'naviy qadriyatlarini singdirish amaliyoti .....	48
Abdullayev A.A. Maktabgacha ta'lim muassasalarida rahbarlik qilish va tashkil etishning zamonaviy usullari .....	51
Achilova M.S. Maktabgacha ta'lim muassasalarida estetik tarbiyaning mazmuni .....	55
Ochilov F.I., Xusanova N.B. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy pedagogik kompetentsiyalarni shakllantirish talablari .....	58
Narimbetova Z.A., Asqarova N.J. Boshlang'ich sinf matematika darslarida didaktik o'yinlarning ahamiyati .....	62
G'ulomova X. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida maqollar estetikasi .....	67
Умарова З.А. Башлангич таълимда педагогик жараён .....	70
Жабборова О.М., Сайдғаниева З.С. Башлангич таълим педагогикаси: мазмун ва моҳият .....	74
Quzmanova G.B., Ergasheva M.E. Umumiy o'rta ta'lim maktabalarida ota-onalar yig'ilishini samarali tashkil etish .....	78
Мамадалиев К.Р. Башлангич таълим йўналиши ўкув фанлари тузилмаси ва замонавий ўкув адабиётларини яратиш принциплари .....	80
Тожибоева Г.Р., Крымская Э. Проблемы развития творческих способностей в процессе становления будущего учителя начальных классов .....	86

## ТИЛ ХЭМ ӘДЕБИЯТ

Матчонов С., Холиқулова Ф. Ўқувчиларнинг нуткий кўнижмаларини шакллантиришда матннинг лингводидактик таҳлили .....	91
Шерматова У.С., Жабборова О. М. Самостоятельное чтение и интерпретация правды жизни .....	95

7. Н.М.Каюмова “Мактабгача педагогика”. “ТДПУ” нашриёти, Т.: 2013

РЕЗЮМЕ

Bugungi kunda ta'limda amalga oshirilayotgan islohatlar maktabgacha ta'lim tizimini ham chetlab o'tmadı. Maktabgacha ta'lim tizimiga yangicha yondashuv asosida noan'anaviy darslarni tashkil etishning mazmun-mohiyati, bog'cha yoshidagi bolalar tarbiyasiga e'tibor shuning jumlasidan. Yuqoridagilardan kelib chiqib maqolada maktabgacha ta'lim muassalarida estetik tarbiyaning mazmuni tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ

Текущие реформы в системе образования не обошли стороной систему дошкольного образования. Сущность организации нетрадиционных занятий на основе нового подхода в системе дошкольного образования, в том числе с ориентацией на воспитание детей дошкольного возраста. На основании изложенного в статье анализируется содержание эстетического воспитания в дошкольном образовании.

SUMMARY

Current education reforms have not bypassed the preschool education system. The essence of the organization of non-traditional lessons on the basis of a new approach to the preschool education system, including the emphasis on the upbringing of children of kindergarten age. Based on the above, the article analyzes the content of aesthetic education in preschool education.

---

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA KASBIY  
PEDAGOGIK KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISH  
TALABLARI**

*Ochilov F.I.*

*Toshkent viloyati CHDPI, "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasи o'qituvchisi*

*Xusanova N.B.*

*Toshkent viloyati CHDPI, BOT 18/2 guruh talabasi*

**Tayanch so'zlar:** kompetentlik, kompetentsiya, kasbiy kompetentsiya, kasbiy shakllanish, nutq, bilim, ko'nikma, malaka, mahorat, amaliy tajriba, dunyoqarash.

**Ключевые слова:** компетентность, компетенция, профессиональная компетентность, профессиональное формирование, ораторство, знания, опыт, квалификация, мастерство, практический опыт, мировоззрение.

**Key words:** competently, competence, professional competence, professional formation, orates, knowledge, experience, qualifying, skill, practical experience, and worldview.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ta'limga qaratilayotgan e'tibor barcha o'qituvchilarining o'z ustida ishlashi, tinmay izlanish olib borishi hamda o'quv jarayonini zamon talablari darajasida, ilmiy asosda tashkil etishlari uchun zaruriy sharoitlarni yaratib berish bilan bir qatorda, ta'lim sohasiga yosh mutaxassislar kelib qo'shilishiga imkoniyat yaratmoqda. Bu esa o'z navbatida, bo'ljak o'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish yo'nalishlarida yanada yangi talablar qo'yadi.

Kompetentlik deganda shaxs bilim, ko'nikma va tajribalarining ijtimoiy-professional mavqeい va o'ziga tegishli vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilishga qodirligi hamda haqiqiy moslik darajasi tushuniladi. Kompetentsiya keng qamrovli tushuncha bo'lib, inglizcha "competence", ya'ni "mahorat", "qobiliyat" degan ma'nolarni anglatadi. Bundan kelib chiqadiki, kompetentsiya bilim, ko'nikma, malaka, qarashlar va shaxsiy sifatlarning namoyon bo'lishi yoki ta'sir ko'rsatish qobiliyati. [5]. Kasbiy kompetentsiya kasb egasining

o‘z mutaxassisligi borasida yuqori darajada shaxsiy sifatlar, mahorat va qobiliyatga ega bo‘lishidir.

XX asrning 60-70 yillarda kasbiy kompetentsiya mutaxassis, shu jumladan, pedagog tomonidan o‘z bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma‘lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etgan bo‘lsa, global axborotlashuv sharoitida bu zaruriyat yanada dolzarblik kasb etmoqda.

Ko‘plab olimlar, xususan, V.V.Nesterov, A.S.Belkin tomonidan kasbiy pedagogik kompetentlik mohiyati o‘rganilgan. Ularning e’tirofiga ko‘ra, kasbiy peagogik kompetentlikning asosini kognitiv (kasbiy pedagogik eruditсия), psixologik (hissiy madaniyat va psixologik yetuklik), kommunikativ (mulqot madaniyat va pedagogik takt), notiqlik (nutqning kasbiy nuqtai nazardan egallanganligi), kasbiy texnik hamda kasbiy-informatik kompetentsiyalar yig‘indisi tashkil etadi [4, B. 186].

V.G.Vorontsova va G.D.Vorontsovlarining yondashuviga ko‘ra, kasbiy pedagogik kompetentlik: bilim (ilmiy-kasbiy axborotlarning o‘zlashtirilganlik darajasi va ularni amaliyotda qo‘llay olish qobiliyati); shaxsiy va kasbiy pozitsiya (ma‘naviy ahamiyatga ega qadriyatlar, axloqiy qarashlar); kasbiy madaniyat (yangi axborot texnologiyalari negizida shakllangan qadriyatlar va ijodiy faoliyat uyg‘unligi) [1, B. 186]dan iborat.

Kasbiy pedagogik kompetentlik sifatlariga ega bo‘lish mutaxassis uchun o‘z faoliyatini izchil tahlil etish, o‘z-o‘zini doimiy ravishda xolsi baholab borish, kasbiy malaka darajasini aniqlash va o‘z-o‘zini rivojlantrish uchun imkoniyat yaratadi. Natijada shaxs kasbiy nuqtai nazardan takomillashgan mutaxassis sifatida noqulay sharoit, nosog‘lom muhit mavjud bo‘lgan murakkab jarayonlarda ham o‘z zimmasisiga yuklatilgan vazifalarni to‘la, sifatlari bajaradi. Barkamol insонning shakllanishi, uning munosib kasb-korni egallashi jamiyat tarraqqiyoti uchun baholiqdrat o‘z hissasini qo‘sib yashashi va shu orqali jamiyatda o‘zligini namoyon etishi, ya’ni shaxsning kamol topishi nazarda tutiladi. Komillik sari intilish esa shaxsning kasbiy shakllanishi bilan birgalikda yaxlit holda kechadigan va deyarli bir umr davom etadigan murakkab jarayondir.

Jamiyatimiz rivojlanishi bilan bog‘liq talablar va yuqorida keltirilgan jihatlarining bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy kompetentsiyalar shakllanishiga ta’sirini peagogik tadqiq etish shu kunning dolzarb muammolaridan ekanligini ko‘rsatadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy kompetentsiya kamoloti masalasi uning hayotida muhim o‘rin tutadigan faoliyat yo‘nalishidir. Bu faoliyat yo‘nalishini to‘g‘ri tanlash va belgilash keng ko‘lamdagi shaxsiy muammolarni hal etishga olib keladi. Shunga ko‘ra, quyidagi mulohazaga e’tibor qaratish ancha muhimdir: Kasb tanlash – kasb talablaridan kelib chiqib, bir qancha variantlar orasidan shaxsiy xususiyatlari va xislatlari ustuvorligiga ko‘ra munosibrog‘ini tanlashni bildiradi. Kasb tanlash kasbiy yo‘nalanganlikka nisbatan bir mucha murakkabroq jarayon. Chunki shaxsda kasbga xos xususiyatlari – muayyan kasbni egallashga tayyorgarlik darajasi (bilim, tajriba, dunyoqarash doirasining kengligi)ning mayjudligini aniqlash talab etiladi. Kasbiy shakllanish va kasbiy faoliyat muammolarini tadqiq etish dolzarb va keng qamrovli psixologik-pedagogik muammo sifatida baholash uchun barcha asoslar mayjud. Mazkur muammo ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida shaxs oldiga yanada kattaroq talablar qo‘yadi. [3]

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentsiyasini shakllantirishda quyidagilarga e’tibor beriladi: kasbiy masalalarini hal etishda amaliy tajriba va bilim asosida muvaffaqiyatli harakat qilishni ta’minlash; ish faoliyatida kasbiy mahoratni shakllantirish bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish va hal etish; kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish orqali malakali mutaxassislarni tayyorlash. [6]

Shu bilan birga: 1. Mutaxassislarga qо'yladigan kasbiy va shaxsiy talablarning o'sib borayotganligi. 2. Kasb tanlashga sabab bo'luvchi omillarning davriy xarakterga egaligi va kasblar to'g'risida ijtimoiy me'yorning mavjud emasligi. 3. Kasbiy tasavvurlarning ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga va bozor munosabatlariga hamohang o'zgarayotganligi hamda kasb-hunar va tegishli mutaxassislik yo'naliishlari o'rtasidagi tafovutning keskin ortayotganligi.

4. Yoshlarning mutaxassislik yo'naliishlarini tanlashlarida aniq tasavvur, maqsad, faoliyat yo'naliishi va istiqbol rejalarini belgilash qobiliyatlariga ega emasligi va b.

XXI asrning boshidagi kasbga doir axborotlar ko'lamining ortganligi, inson ehtiyojlarining o'sib borayotganligi, yangi sohalarning paydo bo'layotganligi, kasb yo'naliishlarining o'zgarib borishi va insonlarning hayotga bo'lgan munosabati o'zgarayotganligi sifatlari bilan xarakterlanadi.

Ma'lumki, har bir shaxs farovonlikda va yaxshi ta'minlangan sharoitda yashashni istaydi. Shu sababli ham insonlar farovon turmushni ta'minlashga xizmat qiluvchi mehnat faoliyati bilan shug'ullanishga intiladilar va moddiy boyliklarni o'zlashtirishga imkon yaratuvchi kasb-hunar sohalari va mutaxassisliklarni egallashga harakat qildilar. Ba'zi holatlarda ma'lum bir kasbni tanlash va uni egallashda shaxsnинг imkoniyati yetarli bo'lmaydi. Insonning qiziqishlari va psixologik imkoniyatlariga to'g'ri kelmaydigan kasbning tanlanishi, tabiiyki, uning shaxs sifatida kamol topishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [2]. Shu nuqtai nazardan, shaxsnинг ichki intilish va imkoniyatlariga u tanlagan kasbi bilan shaxsi orasidagi munosabati o'ta dolzarb masala hisoblanadi. Jumladan, barcha kasblarni tayyorlashda asosiy o'rinnatudigan pedagog kasbi alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagogning, bo'lajal bosholang'ich sinf o'qituvchilarining o'z kasbiga bo'lgan tayyorgarlik darajasini rivojlantirish uchun quydigilar zarur bo'ladi:

1. Ta'lim va tarbiya berish istagida ekanligingizga bo'lgan ishonch. Chunki, bosholang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy kompetentsiyaning shakllanishida insondagi tilak, xohish, istak, ehtiyoj, maqsad, manfaat va bularga erishish yo'lidagi vositalar asosiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar hisoblanadi. [6, B. 67]

2. Berilayotgan axborot o'quvchilarga zarur ekanligiga bo'lgan ishonchingiz ularga o'tadi. Shundagina o'quvchilar diqqati sizga qaratiladi.

3. O'qituvchining ishonchli, erkin harakatlari qaddi-qomati ham o'quvchilarni o'ziga jalg etadi. Bunda tashqi va ichki holatning uyg'unligi juda muhim. Tashqarida nima bo'lsa, ichkarida ham shu ekanligini g'ayriixtiyoriy ong orqali har bir kishi sezadi. Demak, o'qituvchining ishonchli tashqi ko'rinishi uning haq ekanligiga ishonch uyg'otadi. [2]

4. O'qituvchining energetikasi ham katta ahamiyatga ega. O'qituvchi quvvat beradi. Lekin ba'zilarning quvvati butun auditoriyani egallasa, ba'zilarning quvvati ikkinchi qatorgacha ham yetmaydi. Bu yerda shunday qoida ishlaysdi: qancha quvvat bersang, shuncha e'tibor olasan. O'z quvvatingizni, ichki kuchingizni bersangiz, evaziga o'quvchilarning qiziqishlari va hurmatini qozonasiz.

5. O'quvchilarga bo'lgan munosabatingiz juda muhim. Agar siz auditoriyani hurmat qilsangiz va ularga samimi yordam berishni xohlasangiz, o'quvchilar sizniki bo'ladi. Lekin siz faqat o'z maqsadlaringizga erishishni xohlab, auditoriyani hurmat qilmasangiz, o'quvchilar ham sizga salbiy javob berishadi.

6. O'qituvchining ovozi ham katta ahamiyatga ega (kuchi, tembri, ohangi). Agar o'qituvchining nutqida to'g'ri narsalar ifodalansa, lekin ovozi chiyilloq yoki to'ng'ilaydigan bo'lsa, tili chuchuk, hushtak chalib gapirsa, juda past ohangda gapirsa, o'quvchilar uni qabul qilmaydi. Demak, o'qituvchi nutqi professional, sof bo'lishi kerak.

7. Ilmiy so'zlarni ko'p qo'llamang, shuningdek keraksiz tovushlarni ham. Bular nutqni

ifloslantiradi va salbiy taassurot qoldiradi. Ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchi nutqi tuzilmasi qoidalar quyidagicha: Maqsad: Qiziqtirish. Kirish: O'zaro tushunish. Nutqni qabul qilishga tayyorlash. Bayon etish. Axborot berish. O'z fikrini asoslash. Isbotlash. Ishontirish. Rad etish. O'quchilarni aniq harakatga undash. Xulosa. Aytilganlarga yakun yasash, qiziqishni kuchaytirish. Taassurotlarni mustahkamlash.

8. Sizga intuitsiya (sezgirlik) zarur, chunki muvaffaqiyatlari o'qituvchi auditoriya reaktsiyasini his etadi, zarur paytda unga moslashadi. Ana shunda o'quchilar sizni eshitadi. Bunday o'qituvchi o'quchilarni o'ziga ergashtiradi.

9. An'anaviy usulda dars o'tuvchi o'qituvchi katta xato qiladi. Bu o'quchilar orasida beparvolik va mazax qilishni qo'zg'atadi. Siz vaziyatga qarab, zarur paytda o'z metodikangizni o'zgartira olishingiz lozim.

10. Eng asosiysi – mehnat. Agar siz yaxshi o'qituvchi bo'llishni istasangiz, o'z ustingizda mustaqil ishlang, mehnatingiz sizga muvaffaqiyat keltiradi. Siz albatta, ajoyib o'qituvchi bo'lasiz.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bugungi kunda kasbiy rivojlanishidagi sustihklar ularning shaxs sifatida shakllanishi va kasb tanlash jarayonidagi yo'll qo'yilgan xatolarining oqibatidir. Oqibatda shaxsning kasbiy shakllanishi sustlashganligi, kasbiy va shaxsiy ahamiyatli sifatlarning shakllanishida izchillik yo'qolmoqda.

Shu sababli xulosa o'rniда, quyidagilarni bayon qilish mumkin: bugungi kunda jadallashgan zamonda yashar ekanmiz nafaqat talabalarda, balki o'quchilarda (boshlang'ich sinfdanoq) ijtimoiy intellektui o'stirishimiz, to'g'ri kasbga yo'naltirishimiz, dunyoqarashni shakllantirishimiz va kelajakda hech afsuslanmaydigan kasb-korni tanlashiga imkon yaratishimiz hamda ularda kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirib borishimiz lozim.

#### Adabiyotlar:

1. Воронцова В.Г, Воронцов Г.Д. Традиции и современность в постдипломном образовании // Ж. Методист. – М.: 2005. - №3. – С. 11.
2. Davletshin M.G. Zamonaviy ta'lim muassasasi o'qituvchisining psixologiyasi. – Т.: "O'qituvchi" nashriyoti. 1999-y. 118 b.
3. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. Ростов. Н.Д., 1996. - 382 с.
4. Нестеров В.В., Белкин А.С. Педагогическая компетентность / Отв. за вып. В.Ю.Банных. – Екатеринбург: ЕГПИ, 2003. – С. 186.
5. Сальникова О.А.. Ключевые компетенции в современном образовании (<https://yandex.ru>).
6. Turg'unov S.T. va boshqalar. O'qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentliligini rivojlanтирish. – Т.: "Sano-standart" nashriyoti. 2012-y. – B 67.

#### РЕЗЮМЕ

Kasbiy pedagogik kompetentlik sifatlariga ega bo'lish pedagoglar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, o'z bilimlarini izchil boyitib borish, yangi o'quv axborotlari, o'quv materiallarini o'zlashtirish, bugungi kun talablarini chuqur anglash, yangi bilimlarni izlab topish, ularni qayta ishslash va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishlariga yordam beradi. Ushbu maqola bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbga yo'naltirish, ularda to'g'ri kasb tanlash imkoniyatini hamda kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish va ijtimoiy munosabatlardan kelib chiqib, jamiyat talabiga mos kasbni ongli tanlashga qaratiladi.

#### РЕЗЮМЕ

Качество профессиональной педагогической компетентности имеет практическое значение для учителей, чтобы они могли последовательно обогащать свои знания, осваивать новую учебную информацию, учебные материалы. Выполнять требования сегодняшнего дня, изу-

чать новые знания, обрабатывать их и эффективно применять в своей практике. Эта статья будет направлена на привлечение будущие учителя начальных классов к профессии, формирование возможности выбора правильной профессии и осознанный выбор профессии, формирование профессиональной компетентности в соответствии с потребностями общества, исходя из социальных отношений.

## SUMMARY

The qualities of professional pedagogical competence are of practical importance for teachers, so that they can consistently enrich their knowledge, learn new educational information, educational materials. To meet the requirements of today, to learn new knowledge, to process it and to apply it effectively in their practice. This article will aim to involve future primary school teachers in the profession, forming the choice of the right profession and conscious choice of profession, forming professional competence in accordance with the needs of society, based on social relations.

---

## BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSALARIDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI

*Narimbetova Z.A.*

*Toshkent viloyati ChDPI "Boshlang'ich ta'lism" kafedrasi o'qituvchisi*

*Asqarova N.J.*

*Toshkent viloyati ChDPI maxsus sirtqi 18/1-guruh talabasi*

**Tayanch so'zlar:** interfaol usul, pedagogik texnologiya, didaktik o'yinlar, klaster, o'yinlar nazariyasi, faollik.

**Ключевые слова:** интерактивный метод, педагогическая технология, дидактические игры, кластер, теория игр, деятельность.

**Key words:** interactive method, pedagogical technology, didactic games, cluster, game theory, activity.

Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'qituvchilariga matematika darslarini pedagogik texnologiyalar, didaktik o'yinlar asosida tashkil etishga yordam berish maqsadida yozildi. Unda matematika darslarida o'quvchilar bilan ishlash usullari bayon etilgan. Maqolada og'zaki hisoblashlarni o'rgatish, didaktik o'yinlar va mashqlarni qo'llash, topshiriqu kartochkalar va o'quvchilarning matematikaga bo'lgan qiziqishlarini oshiruvchi topshiriquqlar bilan ishslash, nazorat ishlarini o'tkazish, og'zaki hisoblash jadvallari kabilar o'rinn olgan [1].

Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinflarda ta'limumning samarali bo'lishiga, o'quvchilarning uquv-bilish faoliyatini muvoffaqiyatl boshqarishga, matematikadan nazariy bilimlarni osон egallashlariga, ulaming bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi.

Didaktik o'yin — ta'lum beruvchi usul bo'lib, bu usul muayyan ta'limiyl maqsadlarga erishuvga, ya'ni o'tilgan o'quv materialini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Har bir didaktik o'yinni o'tkazishda muayyan bir vazifa maqsad qilib olinadi. Masalan, «Teatr» o'yiniga qo'yiladigan didaktik topshiriq bolalarning oldingi darslarda tanishgan 5 soni haqidagi tushunchalarini mustahkamlashdan iborat. «Doiraviy misollar» o'yinida esa ikkinchi o'nlik ichida hisoblash malakalarini mustahkamlashdan iborat bo'lgan didaktik topshiriq qo'yiladi. Didaktik topshiriq darsga qo'yiladigan umumiy maqsadning bir qismini tashkil qiladi.

Har bir didaktik o'yinining ham har qanday o'yindagi singari qoidalari bo'ladi. O'sha qoidalarga amal qilinmasa, o'yinining o'yin sifatidagi ahamiyati, binobarin, o'yinining ta'lum-tarbiyaviy va psixologik ahamiyati yo'qoladi. O'yin qoidalari o'yin topshirig'iqa